



## ERGASH GAPLI QO‘SHMA GAPLARDA DIKTUM VA MODUSNING IFODALANISHI

*Aytbayev D.T.*

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti  
professor v/b, filologiya fanlari nomzodi*

**Tayanch sozlar:** modallik, gap mazmuni, mazmuniy sintaksis, obyektiv modallik, subyektiv modallik, morfologik-sintaktik vositalar, konstruktiv-sintaktik vosita, morfologik-sintaktik vosita, intonatsion-sintaktik vosita, havola bo‘lak, ergash gapli qo‘shma gap, shakli va mazmuni asimmetriyasi, havola bo‘laksiz gap, avtosemantik xususiyat.

**Ключевые слова:** модальность, содержание предложения, содержательный синтаксис, объективная модальность, субъективная модальность, морфолого-синтаксические средства, конструктивно-синтаксическая среда, морфолого-синтаксическая среда, интонационно-синтаксическая среда, фрагмент ссылки, сложное предложение с наречием, асимметрия формы и содержания, предложение без фрагмента ссылки, автосемантическая характеристика.

**Key words:** modality, sentence content, substantive syntax, objective modality, subjective modality, morphological-syntactic tools, constructive-syntactic tool, morphological-syntactic tool, intonational-syntactic tool, link slice, adverbial joint sentence, asymmetry of form and content, link pieceless sentence, autosemantic feature.

Ma'lumki, gap mazmunining eng muhim qismi modallikdir. Modallik (lot. modalis – o‘lchov, usul) fikrning voqelikka bo‘lgan munosabatlarining turli xil ko‘rinishlarini, shuningdek, bildirilayotgan narsalarning subyektiv tarzda tasniflanishining turlicha ko‘rinishlarini ifodalovchi funksional-semantik kategoriyadir. Modallik tushunchasi fanga Aristotel tomonidan olib kirilgan. Tilshunoslikda modallik deganda, odatda, gap mazmunining obyektiv borliqqa munosabati va so‘zlovchining gap mazmuniga bo‘lgan munosabati tushuniladi. Shunga ko‘ra, mazmuniy sintaksisda gapdan ifodalangan mazmunning reallikka bo‘lgan munosabatini aks ettiruvchi obyektiv modallik “subyekt”, “gap mazmuni” va “obyekt” birligini aks ettiruvchi subyektiv modallik farqlanadi.

Tilshunoslarning ta’kidlashlaricha, “Modallik ma’nosi til sistemasining turli sathlarida kuzatiladi. Modallikni ifodalovchi vositalar ham rang-barangdir.



...Turkiy tillar materiallari asosida, asosan, quyidagi modallik vositalari ajratiladi: mayl, zamon va shaxs qo‘shimchalari, gapning alohida qurilmalari, yuklamalar, so‘z tartibi, intonatsiya, yuklama vazifasidagi so‘roq olmoshlari, undalmalar, kirish so‘z va gaplar” . Ushbu vositalar o‘z funksiyalarini gap tarkibida bajargani bois, ularning sintaktik belgisi muayyan sinflarga birlashishi uchun asos bo‘ladi va sintaktik belgisiga ko‘ra modallikni ifodalovchi vositalar 1) konstruktiv-sintaktik; 2) morfologik-sintaktik; 3) intonatsion-sintaktik kabi sinflarga ajratiladi .

Modallikni ifodalovchi morfologik-sintaktik vositalar sirasiga o‘zida zamon, mayl va shaxs ko‘rsatkichlarini mujassam etuvchi fe‘llar kiradi. Mazmuniy grammatikada obyektli va obyeksiz fe‘llar farqlanadi. Bosh gapning qismi vazifasida obyeksiz fe‘llar kelganda, havola bo‘lak vositali to‘ldiruvchi o‘rnida bo‘ladi: Biz shunga aniq ishonamizki, millatlararo nizolar yaxshilikka olib kelmaydi. Men shundan qo‘rqamanki, u bu ishni oxiriga yetkazishi qiyin. Bunday to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gaplarda bosh gapning kesimi vazifasida keladigan so‘zlar ma‘no jihatdan modus ifodasi uchun mos keladigan so‘zlar bo‘ladi. Bu vazifada ko‘proq bilmoq, ko‘rmoq, aytmoq, ta‘kidlamoq, esda tutmoq, esdan chiqarmoq, payqamoq, ishonmoq, qo‘rqmoq, fahmlamoq, tushunmoq, o‘goh bo‘lmoq, o‘ylamoq, sezmoq, qaror qilmoq, aniqlamoq, tan bermoq, his etmoq, mo‘ljallamoq, shubhalanmoq kabi his-sezgi, idrok, nutqiy va fikriy faoliyatni bildiruvchi so‘zlar keladi. Bunday ma‘nolar modus “voqea” ifodasi uchun juda muvofiq keladi. Bu o‘rinda yana ta‘kidlash kerakki, aytmoq, demoq, xabar qilmoq kabi so‘zlar bosh gapda kesim bo‘lib kelganda ham, ular modus ifodasi uchun xizmat qiladi. Bunday qo‘shma gaplarda, V.V.Martinov iborasi bilan aytganda, real borliqdagi (g‘ayrilisoniy) voqea bilan bu voqea haqidagi xabar (lisoniy) o‘rtasidagi munosabat aks etadi. Masalan: Shuni ta‘kidlash lozimki, siz o‘zingizga yuklatilgan vazifalarni sidqidildan bajardingiz. Ushbu misolda siz o‘zingizga yuklatilgan vazifalarni sidqidildan bajardingiz – real borliqdagi voqea, ya‘ni diktum, shuni ta‘kidlash lozimki – real borliqdagi voqea bilan bu voqea haqidagi xabar o‘rtasidagi munosabat, ya‘ni modus. Ergash gapli qo‘shma gaplarda modus muayyan voqelikni (propozitsiyani) ifodalamaydi, balki so‘zlovchining voqelikka turli munosabatlarini ifodalash uchun xizmat qiladi. Natijada ergash gapli qo‘shma gapning shakli va mazmuni o‘rtasida asimmetriyani yuzaga keltiradi.

Ergash gapli qo‘shma gap turlarida modusning ifodalanishi bir xil emas. Havola bo‘lakli va havola bo‘laksiz ergash gapli qo‘shma gaplar o‘zaro ana shu jihatiga ko‘ra ham farqlanadi.

Bir havola bo‘lakli gaplarda modusning ifodalanishi ergash gapli qo‘shma gapning bosh gapiga to‘g‘ri keladi. “Ergash gapli qo‘shma gaplarning bir havola bo‘lakli ko‘rinishida bosh gap sinsemantik, ya‘ni ergash gapdan ajratib olinganda, manoga ega bo‘lolmaydi, chunki uning tarkibida konkret ma‘noga ega bo‘lmagan havola bo‘lak bor. Lekin ulardagi ergash gap avtosemantik, ya‘ni bosh gapdan ajratib olinganda ham ma‘noga ega, boshqacha qilib aytganda, unda denotativ voqea ifodalangan, bosh gapda esa bor-yo‘g‘i modus ifodalangan”. Masalan, Shuni unutmash kerakki, millatimiz g‘ururi, iftixori bo‘lgan ona tilimizning qadrsizlanishiga yo‘l qo‘ymasligimiz lozim. Mazkur gapda shuni unutmash kerakki – ergash gapli qo‘shma gapning bosh gapi. Uning tarkibidagi shuni deysisi muayyan obyektiv fikrning, real borliqdagi ma‘lum voqeaning ifodalanishiga yo‘l qo‘ymaydi, balki ergash gap orqali ifodalanayotgan fikrni ta‘kidlash, unga ishora qilish kabi munosabatlarni ifodalaydi. Demak, mazkur jumlada bir denotativ fikr ikkita gap shakli orqali ifodalangan. Natijada modus ifodachisi mazkur qo‘shma gapning shakli va mazmuni o‘rtasida asimetriyani yuzaga keltirgan. Gapni sodda gap shaklida quyidagicha ifodalash mumkin: Millatimiz g‘ururi, iftixori bo‘lgan ona tilimizning qadrsizlanishiga yo‘l qo‘ymasligimiz lozimligini unutmash kerak.

Ikki havola bo‘lakli gaplarda va havola bo‘laksiz gaplarda esa modusning ifodalanishi bir havola bo‘lakli gaplardan farq qiladi. Ta‘kidlash lozimki, ikki havola bo‘lakli gaplarda bosh gap ham, ergash gap ham sinsemantik xususiyatga ega bo‘lib, ular ayri holda ma‘noga ega bo‘lolmaydi. Bunday gaplarda ikki tomonlama aloqa mavjud bo‘lib, har ikki gap havola bo‘lakka ega bo‘ladi.

Havola bo‘laksiz gaplar esa avtosemantik xususiyatga ega bo‘lib, ularda ikki va undan ortiq denotativ voqeliq muvofiq shakllar orqali voqelanadi va shunga ko‘ra ularda mazmuniy-sintaktik muvofiqlik saqlanadi. Masalan, Mashina ketgandan so‘ng, yana hamma yoqni tun zulmati qopladi (Ch.Aytmatov) mazkur havola bo‘laksiz ergash gapli qo‘shma gap orqali ikkita denotativ fikr ifodalangan: 1. Mashina ketdi. 2. Hamma yoqni tun zulmati qopladi. Qismlari o‘rtasida payt munosabati ifodalangan. Ularda diktal ma‘no ustiga qo‘yilgan modal ma‘no har ikki qismda ifodalangani bois shakl va ma‘no mutanosibligini saqlaydi.

Ikki havola bo‘lakli ergash gapli qo‘shma gaplarda esa o‘zaro zich bog‘langan ikki denotativ fikr ifodalanadi. Masalan: Bu oilada nima sir o‘tsa, barchasi menga ayon (Oybek) gapda ikkita havola bo‘lak ishtirok etgan: nima – barchasi. Savol tariqasidagi havola bo‘lak (nima) ergash gap tarkibida, javob tariqasidagi havola bo‘lak (barchasi) bosh gap tarkibida qo‘llangan bo‘lib, ular ishtirokidagi ergash va bosh gaplar sinsemantik xarakterga ega va ular bir-



biridan ayri holda ma'no'ga ega bo'lolmaydi. Bunday gaplarda ikki tomonlama aloqa mavjud bo'lib, har ikki gap havola bo'lakka ega bo'ladi. Ularda ham, havola bo'laksiz gaplar singari, diktal ma'no ustiga qo'yilgan modal ma'no har ikki qismda ifodalanadi, shuning uchun shakl va mazmun mutanosib bo'ladi.

#### Adabiyotlar:

1. Aytbayev D.T. Discourse is a combination of language activity and text. International Scientific Journal Science and innovation Series C Volume 2 ISSUE 7 July, 2023. 62-66-бет.
2. Айтбаев Д.Т. Тіл біліміндегі модус және диктум. Алтаистика және түркология. Қозоғистон. Астана. №3. 2011. 24-26-бет
3. Айтбаев Д.Т. Ассиметрический дуализм лингвистических знаков. Туркология. Қозоғистон. Туркестон. №1-2 (51-52), 2011. 36-41-бет
4. Бердиалиев А. Объекти муносабатдаги қўшма гапларда модус ва диктум масаласи. // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. // Илми асарлар тўплами. – Хўжанд, 1993. – Б. 4-12.
5. Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – Б.56.
6. Нурмонов А., Махмудов Н., Аҳмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент:Фан, 1992. – Б.83-85.

#### РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada modallikni ifodalovchi vositalar (konstruktiv-sintaktik; morfologik-sintaktik va intonatsion-sintaktik) haqida va keltirilgan baadiy asar misollar orqali ergash gapli qo'shma gap turlarida diktum va modusning ifodalanishi haqida fikrlar yuritiladi.

#### РЕЗЮМЕ

В этой статье рассказывается о средствах выражения модальности (конструктивно-синтаксических; морфолого-синтаксических и интонационно-синтаксических), а также о том, как произведение баади размышляет о выражении изречения и модуса в типах наречий с помощью примеров.

#### SUMMARY

This article deals with the means (constructive-syntactic; morphological-syntactic and intonational-syntactic) that represent modality, and the baadian work cited reflects on the articulation of dictum and Modus in the types of adverbial participles through examples.